



O'zbekistonning transchegaraviy suv manbalari bilan bog'liq huquqiy va siyosiy muammolari

Tangirqulov Muzaffar Doniyor o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Tabiiy resurslar huquqi” yo'nalishi

magistratura bosqich talabasi

muzaffartsul@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining transchegaraviy suv manbalaridan foydalanish bilan bog'liq huquqiy va siyosiy muammolari tahlil qilinadi. O'zbekiston suv tanqisligidan jiddiy zarar ko'rgan mamlakatlardan biri bo'lib, ayniqsa Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryolar bo'yicha qo'shni davlatlar bilan bo'lgan murakkab munosabatlar doirasida xalqaro huquqiy normalar va mintaqaviy kelishuvlarning roli muhim ahamiyatga ega. Maqolada xalqaro huquq, ikki va ko'p tomonlama bitimlar, mintaqaviy hamkorlik institutsiyalari hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlari asosida mavjud muammolar va ularning yechimlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, transchegaraviy suvlar, xalqaro huquq, siyosiy muammolar, Amudaryo, Sirdaryo, IFAS, mintaqaviy hamkorlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются правовые и политические проблемы Узбекистана, связанные с использованием трансграничных водных ресурсов. Узбекистан входит в число стран, остро ощущающих дефицит воды, особенно в контексте сложных отношений с соседними государствами по вопросам распределения вод Амударьи и Сырдарьи. Анализируются международные правовые нормы, двусторонние и многосторонние соглашения, а также роль региональных институтов сотрудничества и современных механизмов управления водными ресурсами.



Ключевые слова: Узбекистан, трансграничные воды, международное право, политические проблемы, Амударья, Сырдарья, ИЦАО, региональное сотрудничество.

Abstract: This article analyzes the legal and political challenges faced by the Republic of Uzbekistan in managing transboundary water resources. As one of the countries severely affected by water scarcity, Uzbekistan's relations with neighboring states over the use of major rivers like the Amu Darya and Syr Darya are of strategic importance. The paper explores the role of international legal norms, bilateral and multilateral agreements, regional cooperation institutions, and modern water management mechanisms in addressing these challenges and finding sustainable solutions.

Keywords: Uzbekistan, transboundary water, international law, political issues, Amu Darya, Syr Darya, IFAS, regional cooperation.

Suv hayotning asosi va insoniyatning barqaror kelajagi uchun zarur bo'lgan eng muhim resurslardan biridir. Bugungi kunda suvdan oqilona foydalanish masalasi jahon miqyosida dolzarb bo'lib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, suvga bo'lgan talabning muttasil oshib borayotgani va mavjud suv zaxiralarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Ushbu holatga qarab global suv inqirozi yaqin kelajakda ekologik, ijtimoiy va siyosiy jihatdan jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Statistik ma'lumotlar bugungi xavotirlarning bejiz emasligini isbotlab bermoqda. Dastlab, yer yuzining katta qismi — taxminan 70 foizi suv bilan qoplangan bo'lsa-da, bu suvlarning 97 foizdan ortig'i sho'r va ichimlik uchun yaroqsiz hisoblanadi. Ya'ni, insoniyat foydalanishi mumkin bo'lgan chuchuk suv atigi 2,5 foizni tashkil etadi. Biroq bu chuchuk suvlarning katta qismi muzliklarda (taxminan 69%) va yer osti qatlamlarida (30%) saqlanadi. Faqatgina 0,3 foizgagina daryo va ko'llar orqali bevosita foydalanish imkoni mavjud¹. Yana bir jiddiy holat bu ichimlik suvi taqchilligi.

¹ Erdonov, M. N., & Mustayev, Q. R. (2022). Markaziy Osiyo mamlakatlarida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish: muammo va echimlar. Экономика и социум, 74.



Bugungi kunda har o'nta insondan to'rttasi toza ichimlik suvi yetishmovchiligi muammosiga duch kelmoqda. Bu esa nafaqat salomatlik, balki ijtimoiy tenglik, migratsiya va xavfsizlik kabi dolzarb masalalarni ham yuzaga keltiradi. 2030-yil va undan keyingi yillarga oid prognozlar esa vaziyatning yanada murakkablashishini ko'rsatmoqda. Jumladan, 2050-yilga kelib dunyo aholisi soni 9,8 milliardga yetishi kutilmoqda. Bu esa tabiiy ravishda chuchuk suvga bo'lgan talabning sezilarli oshishiga sabab bo'ladi. Shu yillarda insonlarning uchdan ikki qismi suv tanqisligidan jiddiy aziyat chekishi mumkin. Bu kabi faktlar insoniyatni suv resurslariga nisbatan mas'uliyatliroq qarashga, ularni adolatli taqsimlash, ayniqsa transchegaraviy suvlarni boshqarishda xalqaro hamkorlik va barqaror yondashuvlarni rivojlantirish zarurligini taqozo etmoqda. Aks holda, suv atrofidagi mojaro va inqirozlar faqat ko'payib boradi. Bu kabi faktorlar suv zaxiralariga nisbatan suv olishning hajmini ham keskin kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Eng yuqori ko'rsatkich bugungi kunda Quvaytda qayd etilgan bo'lib 3850%ni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham ancha yuqori hisoblanib eng og'ir ahvol mamlakatimiz hisoblanadi. Zaxiralarga nisbatan suv olish hajmi mamlakatimizda 169%, Turkmaniston 144%, Tojikiston 62%, Qirg'iziston 50% hamda Qozog'iston 33%ni tashkil etadi².

Bugungi dunyoda suv resurslari nafaqat ekologik va iqtisodiy ahamiyatga ega, balki tobora ko'proq geosiyosiy omil sifatida maydonga chiqmoqda. Hatto, ayrim mutaxassislar suvni “XXI asrning yangi nefti” deb atashmoqda, bu esa uning strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Mening fikrimcha, bu ta'rif bejiz emas global isish, aholining ko'payishi va industrial rivojlanish jarayonlarida suv resurslarining roli keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, transchegaraviy suv havzalari yuzasidan yuzaga kelayotgan nizolar bu resurs atrofidagi siyosiy raqobatning naqadar keskinlashganini ko'rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda

² Dunyoning qaysi davlatlarida 2040-yilga kelib suv tanqisligi kuchayadi? (xarita). (2022, dekabr 18). Retrieved from Daryo: https://daryo.uz/2022/12/18/dunyoningqaysi-davlatlarida-2040-yilga-kelib-suv-tanqisligi-kuchayadixarita/?utm_source=@daryo



276 ta transchegaraviy suv havzasi mavjud bo'lib, ulardan qariyb 60 foizi hali hamon qirg'oqbo'yi davlatlar o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan boshqaruvga muhtoj. Ya'ni, ko'plab davlatlar o'z hududlaridan oqib o'tuvchi daryolardan foydalanishda o'z milliy manfaatlarini ustun qo'yib, qo'shni mamlakatlarning manfaatlarini e'tiborsiz qoldirayotgani sababli, mintaqaviy ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Transchegaraviy suvlar masalasida bir tomonlama yondashuvning keskin salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini amaliyot ko'rsatib turibdi. Misol tariqasida, agar bir davlat o'z hududidagi daryoni to'sib, uni texnik yoki irrigatsion maqsadlarda to'liq nazorat ostiga olsa, quyiroqda joylashgan qo'shni davlatlar suv tanqisligiga duch keladi. Bu esa ijtimoiy norozilik, qishloq xo'jaligi inqirozi, hatto mintaqaviy xavfsizlik muammolariga olib kelishi mumkin. Shaxsan men ushbu holatlarni “suv orqali geosiyosiy bosim ko'rsatish” deb baholayman, bu esa xalqaro huquq normalariga zid.

Transchegaraviy suv masalasi esa faqat texnik yoki ekologik muammo emas u ko'p hollarda siyosiy va geosiyosiy jihatlarni ham qamrab oladi. Ushbu daryolardan foydalanishdagi murakkabliklar uchta asosiy geosiyosiy holatni yuzaga keltiradi, deb hisoblayman:

Birinchidan, daryoning yuqori qismida joylashgan davlatning boshqa past oqimdagi mamlakatlarga bosim o'tkazish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu esa suvdan siyosiy vosita sifatida foydalanish ehtimolini oshiradi. Bu holat, ayniqsa, suv tanqisligi kuchaygan pallada keskinlashadi.

Ikkinchidan, mintaqada suv resurslariga bo'lgan notekis yondashuvlar ayrim yirik davlatlar tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlarini o'zaro to'qnashuvga undash yoki raqobatni kuchaytirish uchun vosita sifatida foydalanilishi mumkin. Ya'ni, geosiyosiy manipulyatsiya xavfi mavjud.

Uchinchidan, agar suv masalasida kelishmovchiliklar chuqurlashsa, bu mintaqaviy integratsiya jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Menimcha, suv yuzasidan kelib chiqadigan nizolar, agar hal etilmasa, mintaqaviy hamkorlikni zaiflashtirib, umumiy taraqqiyotning oldini olishi mumkin. Xulosa qilib aytganda transchegaraviy suv resurslari



faqat tabiiy boylik emas, balki mintaqaviy tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotning poydevoridir. Shu sababli, bu masalani hal etishda faqat texnik yoki iqtisodiy yondashuv emas, balki siyosiy donolik, uzoqni ko‘ra olish va barqaror hamkorlik ruhida qarash zarur, deb hisoblayman.

Shu bilan birga besh Markaziy Osiyo davlati ham o‘z milliy suv siyosatini shakllantirishga kirishdi. Qozog‘istonda 1993-yil va 2003-yilda, Qirg‘izistonda 1994-yil, Tojikistonda 1993-yil, O‘zbekistonda esa 1993-yil 6-mayda suvdan foydalanish va uni muhofaza qilishga oid qonunlar qabul qilindi. Turkmanistonda 1993-yilgi “Suv kodeksi” hanuzgacha amal qilmoqda. Bu holat, menimcha, har bir davlatning suv masalasida mustaqil yondashuvi borligini ko‘rsatadi. Ammo ayni paytda ularning huquqiy mexanizmlari o‘rtasidagi uyg‘unlik yetarli emas. Bu esa mintaqaviy kelishuvlarga to‘siq bo‘lishi mumkin. Yana bir muhim jihat shuki, mintaqadagi mavjud huquqiy asoslar ko‘p hollarda xalqaro miqyosdagi hamkorlikni to‘laqonli rivojlantirishga imkon bermayapti. Ayni paytda transchegaraviy suv resurslarini adolatli taqsimlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun yangi huquqiy va institutsional asoslarni yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada xalqaro tajribalardan foydalanilgan holda, davlatlar, donor mamlakatlar, biznes va fuqarolik sektori o‘rtasidagi ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida umumiy strategiya ishlab chiqilishi tarafdoriman. Bunday yondashuv nafaqat umumiy maqsadlarni belgilash, balki ularga erishish mexanizmlarini yaratish, rag‘batlantirish, monitoring va javobgarlik tizimlarini ham mustahkamlashi mumkin. O‘ylaymanki, bu yo‘ldan borilsa, Markaziy Osiyo mintaqasi suv resurslarini boshqarishda nafaqat mintaqaviy, balki global darajada ijobiy o‘rnak bo‘la oladi.

Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslarini boshqarish borasida xalqaro huquq normalarini qabul qilishda hanuzgacha bir qator aniqlashtirilmagan masalalar mavjud. Bu holat mintaqa davlatlari o‘rtasida suvdan foydalanish bo‘yicha yagona yondashuv va ishonchli huquqiy asosning shakllanmaganidan dalolat beradi. Xususan, xalqaro suv huquqi sohasida muhim bo‘lgan BMTning 1992-yilgi va 1997-yilgi



konvensiyalari hali ham barcha mintaqa davlatlari tomonidan to'liq e'tirof etilmagan. “Yuqori oqim”da joylashgan davlatlar ushbu konvensiyalarni ratifikatsiya qilmagan bo'lsa, “pastki oqim” davlatlar orasida faqat O'zbekiston ikkala konvensiyani ham 2007-yilda ratifikatsiya qilgan. Qozog'iston va Turkmaniston esa faqat 1992-yilgi konvensiyaga qo'shilgan.

Bu esa mintaqada xalqaro suv huquqi normalariga umumiy yondashuv yo'qligini ko'rsatadi. Shaxsan men bu holatni mintaqaviy suv diplomatiyasining zaif nuqtasi deb hisoblayman. Har bir davlat o'z manfaatlarini himoya qilishga intilishi tabiiy, ammo suv resurslari kabi umumiy va cheklangan ne'matlarni boshqarishda yakkama-yakka yondashuv emas, balki o'zaro ishonch va xalqaro huquqqa tayanadigan hamkorlik zarur. Ayniqsa, yuqori oqimda joylashgan davlatlar suvning asosiy manbai sifatida o'z ustunligini huquqiy jihatdan mustahkamlashga ehtiyotkorlik bilan qarayotgan bo'lishi mumkin. Shu sababli, ularning BMT konvensiyalarini ratifikatsiya qilishga bo'lgan munosabati ehtiyotkorona bo'lib qolmoqda. Ammo shunday global o'zgarishlar va ekologik xavflar davrida, menimcha, barcha Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro konvensiyalarni qabul qilib, yagona huquqiy maydonda faoliyat yuritishi suvdan oqilona va adolatli foydalanish uchun eng to'g'ri yo'l bo'ladi. Bu nafaqat davlatlararo ishonchni kuchaytiradi, balki kelajak avlodlar uchun barqaror suv siyosatining poydevorini ham yaratadi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi transchegaraviy suv masalalari uzoq yillardan buyon Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, ikki davlatning geografik joylashuvi bu munosabatlarni murakkablashtiradi: Tojikiston suv resurslari bo'yicha "yuqori oqim" davlat hisoblanadi, O'zbekiston esa "pastki oqim" davlat bo'lib, daryo suvlarining asosiy iste'molchisi hisoblanadi.

Eng asosiy masalalardan biri bu – Tojikiston hududidagi Vaxsh va Zarafshon daryolarining oqimi ustidan nazorat va ularning oqibatlari. Ayniqsa, Vaxsh daryosi



Sirdaryo tizimining asosiy irmog'i sifatida O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi ekin maydonlari va ichimlik suvi tizimlariga hayotiy ahamiyatga ega.

Eng katta bahs-munozaralardan biri bu – Tojikiston tomonidan qurilayotgan Rog'un gidroelektr stansiyasi (GES) bilan bog'liq. Bu inshoot, Tojikiston uchun energetik mustaqillikni ta'minlash vositasi bo'lsa-da, O'zbekiston uchun katta xavf sifatida qabul qilingan. Sababi daryodagi suv oqimini sun'iy tartibga solish orqali Tojikiston suvni o'z ehtiyojlariga qarab ushlab turishi mumkin, bu esa O'zbekistonning paxtachilik va dehqonchilik sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu 2010-yillarda bu loyiha O'zbekiston tomonidan keskin tanqid ostiga olingan. Shu sababli, Rog'un GES qurilishi O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi diplomatik sovuqlikni kuchaytirgan. 2018-yilda Prezident Mirziyoyev Tojikistonga rasmiy tashrif bilan bordi, va bu tashrif davomida suv-energetika sohasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Shu bilan birga, Rog'un GES masalasi endilikda mintaqaviy muloqot doirasida hal qilinmoqda. Bu jarayonda O'zbekiston ikki tomonlama manfaatlarga asoslangan yondashuvni qo'llayapti: bir tomondan Tojikistonning energetik ehtiyojlari tan olinmoqda, boshqa tomondan suv taqsimoti masalasi adolatli asosda amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlanmoqda. Bugungi kunda Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi suv ziddiyatlari urushgacha boradigan siyosiy keskinlikdan uzoq. Biroq, hanuzgacha transchegaraviy suv oqimining monitoringi, suv bo'yicha barqaror kvotalar belgilash va favqulodda holatlardagi hamkorlik mexanizmlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Masalan, suvning ortiqcha yoki yetishmovchiligi sababli sug'orish tizimida yuzaga keladigan muammolar qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga ta'sir qilmoqda. Ayni vaqtda Tojikiston BMTning 1997-yildagi konvensiyasini ratifikatsiya qilmagan, bu esa xalqaro huquqiy asosda bahslarni hal etishni qiyinlashtiradi. Suv inshootlaridan foydalanishda ikki tomonlama manfaat, ekologik xavfsizlik va mintaqaviy barqarorlik prinsiplariga tayanish bugungi kunning dolzarb talabidir. Kelajakda suv resurslaridan foydalanishning raqamli monitoringi, umumiy axborot almashuvi va BMT konvensiyalariga qo'shilish orqali yanada samarali boshqaruvga erishish mumkin.



O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi asosiy transchegaraviy suv manbasi bu Amudaryo daryosidir. Bu daryo asosan Tojikiston va Afg'oniston hududlaridan boshlanib, O'zbekiston va Turkmaniston orqali Orol dengizi havzasiga quyiladi. Har ikki davlat ushbu daryodan sug'orish, ichimlik suvi va sanoat ehtiyojlari uchun foydalanadi. Shuning uchun Amudaryo suvi ustidan nazorat va undan foydalanish rejasi har doim muhim masala bo'lib kelgan. Turkmaniston daryodan suv olish uchun Qorako'l kanali (Garagum kanali) orqali Amudaryo suvining katta qismini o'z hududiga buradi. Bu kanal orqali oqim nazoratsiz olib qo'yilishi mumkin, bu esa pastki oqimdagi hududlarga, ayniqsa Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eng asosiy muammo bu Amudaryo suvining taqsimoti bo'yicha aniq va majburiy mexanizmlarning yo'qligidir. 1992-yilda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida suv taqsimoti bo'yicha Ashxobod bitimi imzolangan bo'lsa-da, u ko'p hollarda siyosiy irodaga asoslanib ishlatiladi va majburiy kuchga ega emas³.

Yana bir muhim masala – Orol dengizining qurib borishi va bu jarayonning ikkala davlatga ham ekologik ta'siridir. O'zbekistonning shimoliy hududlari (Qoraqalpog'iston) bilan bir qatorda, Turkmanistonning janubi-g'arbiy qismi ham Orol fojiasi oqibatlaridan aziyat chekmoqda. Suvning kamayishi, sho'r yerlarning ko'payishi va chang-to'zonlarning kuchayishi ikki davlatni ham jiddiy ekologik va sog'liqni saqlash muammolari bilan yuzma-yuz qoldirmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlar sezilarli darajada yaxshilangan. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Serdar Berdimuhammedov o'rtasidagi diplomatik uchrashuvlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari doimiy ravishda muhokama qilinmoqda.

2021-yilda O'zbekistonning Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Turkmanistonning Ekologiya vazirligi o'rtasida Orolbo'yi mintaqasida birgalikda ekologik loyihalar amalga oshirish yuzasidan kelishuv imzolangan. Bu hamkorlik doirasida suvni tejash, sho'rlanishga qarshi kurashish, va barqaror ekotizimlarni

³ <https://www.internationalwaterlaw.org/>



yaratish bo'yicha qo'shma tadbirlar rejalashtirilgan⁴. Bundan tashqari, Amudaryo bo'yicha monitoring tizimlarini yaratish, suvni sun'iy intellekt orqali nazorat qilish, va suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish borasida ham mintaqaviy dasturlar amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekistonning BMT bilan birgalikda ishlab chiqilgan “Green Aral Sea” dasturi doirasida ikki davlat ham ishtirok etmoqda. Suv resurslarining notekis taqsimoti, ekologik muvozanatning buzilishi, va suvdan noto'g'ri foydalanish ikki tomonlama xavflarni keltirib chiqaradi. Ammo so'nggi yillardagi siyosiy yondashuvlar, diplomatik muvozanat va xalqaro dasturlar bu muammolarni mintaqaviy manfaatlar asosida hal qilishga zamin yaratmoqda. Eng asosiysi, suv masalasi faqat resurs sifatida emas, balki ekologik xavfsizlik va inson salomatligi bilan bog'liq masala sifatida yondashilayotgani, kelajakda konstruktiv yechimlarga umid uyg'otmoqda.

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi transchegaraviy suv masalasi bugungi kunda mintaqadagi eng murakkab va noaniq yo'nalishlardan biri sanaladi. Har ikki davlatning asosiy suv manbasi bu Amudaryo daryosi, u Tojikiston tog'laridan boshlanib, Afg'onistonning shimoliy qismini kesib o'tadi va O'zbekiston orqali Orol dengiziga quyiladi. Aynan shu daryo atrofida suv taqsimoti, foydalanish huquqi, ekologik xavfsizlik va mintaqaviy barqarorlik masalalari yuzaga chiqmoqda.

O'zbekistonning Afg'oniston bilan suv borasidagi asosiy xavotiri bu Afg'onistonning Qosh Tepa (Qoshtepa) kanalini qurishi bilan bog'liq. Bu kanal 285 kilometr uzunlikka ega bo'lib, to'liq ishga tushgach, Amudaryo suvining yiliga 10-12 milliard kub metrini Afg'onistonga burib yuborishi mumkin. Kanal Afg'oniston shimolidagi Balx, Juzjon va Faryob viloyatlaridagi qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida qurilmoqda.

Afg'oniston ushbu loyihani o'zining suveren huquqi sifatida ko'radi. Biroq bu kanal oqibatida O'zbekistonning Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlariga keladigan suv miqdori keskin kamayishi mumkin, bu esa ekin maydonlarining qurishiga, hosildorlik pasayishiga va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga olib kelishi ehtimoli yuqori.

⁴ UNDP Uzbekistan Together towards green, fair and inclusive development for better livelihoods of people



O'zbekiston Afg'oniston bilan suv bo'yicha rasmiy, yuridik kuchga ega bo'lgan shartnomaga ega emas. Bu esa mavjud nizolarni hal qilishni qiyinlashtiradi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida 1990-yillarda tuzilgan suvni taqsimlash bitimlariga Afg'oniston a'zo emas, chunki u ilgari Sovet Ittifoqiga tegishli bo'lmagan. Shu sababli Afg'oniston "suvdan foydalanishda bizga hech qanday kvota ajratilmagan, biz istagancha foydalana olamiz", degan pozitsiyada turibdi. Bu holat O'zbekistonni diplomatik jihatdan murakkab vaziyatga soladi. Chunki bir tomondan, Afg'oniston bilan do'stona aloqalarni saqlab qolish istagi mavjud, ikkinchi tomondan esa, suv xavfsizligi milliy manfaat masalasidir. Agar Afg'oniston kanal orqali katta miqdorda suv oladigan bo'lsa, bu faqat O'zbekistonning janubiy hududlariga emas, balki butun Orolbo'yi mintaqasiga salbiy ta'sir qiladi. Ekologik tizimda daryoning oqimi kamayadi, tuproq sho'rlanishi kuchayadi, yovvoyi tabiat muvozanati buziladi. Bundan tashqari, suv uchun ichki raqobat kuchayadi, bu esa ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu paytgacha O'zbekiston tomoni Afg'onistonga nisbatan ziddiyatli bayonotlar bermasdan, muammoni tinch yo'l bilan, muloqot orqali hal qilish tarafdori bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi rasmiy bayonotida suv resurslarini adolatli va ilmiy asosda taqsimlash bo'yicha Afg'oniston bilan texnik muzokaralarga tayyor ekanini bildirgan. Bundan tashqari, O'zbekiston BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar orqali mintaqaviy suv boshqaruvi tizimini yaratish, har bir davlatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda barqaror yondashuv ishlab chiqishni taklif qilmoqda. Xususan, BMTning Orolbo'yi mintaqasi bo'yicha dasturlarida Afg'oniston ham ishtirok etishi tavsiya qilinmoqda.